

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отаяубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF EDUCATIONAL REFORMS DURING THE JADID PERIOD

Islamova Gulzamon Madiyevna

Researcher, Department of National Idea and Philosophy,
Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the philosophical foundations of educational reforms implemented during the Jadid period. It examines the socio-political conditions under which the Jadid movement emerged, as well as its conceptual approaches aimed at modernizing the education system based on the ideas of enlightenment, humanism, and national awakening.

Keywords: Jadids and Jadidism, enlightenment, national awakening, educational reform, philosophy of education, social progress, secular knowledge, spirituality, modernization.

JADIDLAR DAVRIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI

Islamova Gulzamon Madiyevna

Samarqand davlat pedagogika instituti
milliy g'oya va falsafa kafedrası tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidlar davrida amalga oshirilgan ta'lim islohotlarining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy sharoitda shakllanishi, uning ma'rifatparvarlik, insonparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalariga tayangan holda ta'lim tizimini yangilashga qaratilgan konseptual qarashlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid va jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, ta'lim falsafasi, ijtimoiy taraqqiyot, dunyoviy bilim, ma'naviyat va modernizatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N20>

Kirish. Bugungi globallashtirish va axborotlashuv jarayonida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmun va mohiyatini zamon talablari asosida takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Yangi O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va milliy ta'lim modelini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Bunday sharoitda milliy ta'lim taraqqiyotining tarixiy ildizlarini o'rganish, ayniqsa jadidchilik harakati doirasida amalga oshirilgan islohotlarning falsafiy asoslarini tahlil qilish ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati ta'limni jamiyatni yangilashning asosiy omili sifatida talqin qildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvar mutafakkirlar ta'lim orqali milliy ongni uyg'otish, ijtimoiy tafakkurni yangilash va jamiyatni taraqqiyot sari yo'naltirish g'oyasini ilgari surdilar. Ularning qarashlarida ta'lim nafaqat bilim berish jarayoni,

balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish, ma'naviy va intellektual salohiyatni yuksaltirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi davrda ta'limning kompetensiyaviy modeli, innovatsion pedagogik texnologiyalar va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash jarayonlari jadidlar ilgari surgan g'oyalar bilan metodologik jihatdan mushtarakdir. Shu bois jadidlar davridagi ta'lim islohotlarining falsafiy asoslarini tadqiq etish zamonaviy ta'lim konsepsiyalarini chuqurroq anglash va ularni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur ishda jadidlar davrida ta'lim tizimidagi islohotlarni falsafiy nuqtai nazardan o'rganishda bir qator asosiy manbalar asos qilib olindi. Jumladan, Abdulla Avloniyning *"Turkiy guliston yoxud axloq"* asari ta'lim va axloqiy tarbiya masalalarini yoritadi, u jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning o'rnini ko'rsatadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning *Tanlangan asarlarida* milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida ta'lim islohotlari tushuntiriladi. Munavvarqori Abdurashidxonovning asarlari pedagogik yangiliklar va "usuli jadid" maktablari faoliyatini aks ettiradi. Ismoil G'aspiralining tanlangan asarlari esa jadid harakatining nazariy asoslarini va Sharqdagi ma'rifatparvarlik an'alarini ochib beradi. Shuningdek, I.A. Islom Karimovning *"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"* asari, S.Rizayevning *Jadidchilik harakati tarixi va O'zbekiston tarixi (XIX–XX asr boshi)* manbalari tadqiqotning tarixiy va nazariy kontekstini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari. Maqolada umumiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Jadidchilik nafaqat pedagogik, balki keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy harakat bo'lib, uning markaziy maqsadi jamiyatni ilm-fan va ma'rifat orqali yangilash, shaxsni har tomonlama rivojlantirish bo'lgan. Ushbu harakat o'zining nazariy asoslarini turli jadid mutafakkirlari tomonidan shakllantirgan bo'lib, ular ta'lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish orqali milliy uyg'onishni ta'minlashga intilganlar.

Jadidchilik harakati doirasida ta'lim tizimini isloh qilishda katta rol o'ynagan mutafakkirlar orasida Mahmudxo'ja Behbudiy (1878–1919), Abdulla Avloniy (1878–1934) va Munavvarqori Abdurashidxonov (1871–1920) alohida o'rin tutadi.

Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy jamiyat taraqqiyotini ilm-fan va ma'rifat bilan bevosita bog'lab, savodli va tafakkurga ega insonni millat taraqqiyotining eng muhim vositasi deb hisoblagan. Uning fikricha, insonni ma'rifat bilan tarbiyalash jamiyatning barcha sohalarini yangilashga xizmat qiladi, shuning uchun maktablarni modernizatsiya qilish va yangi darsliklarni joriy etish jadidlar harakatining markaziy vazifasi bo'lgan. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochgan, yosh avlodni istiqloq uchun tayyorlaganlar, she'r, maqolalari, sahna asarlari ta'sirida xalqning milliy o'zligini shakllantirishga intilganlar. [2;6.] Behbudiy qarashlarida ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsning axloqiy va intellektual kamolotini ta'minlovchi asosiy ustqurma sifatida ko'riladi.

Behbudiyning 6 ta darsligi qayd etilgan, "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar maktublari"), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Madxali jug'rofiyai Rusiy" ("Rusiyaning qisqacha geografiyasi") kabilar. [2;280.]

M.Behbudiy "Oyna" jurnalidagi "Yoshlarga murojaat" (1914, 21-son, 390–391-bet) maqolasida quyidagicha yozadi: "Bas, ma'lum bo'ldiki, hozirgi zamon ishlariga xoh tijorat

va hukumat va san'atxonalarga bo'lsun, kirib vazifa olmoqqa va ish qilmoqqa ilmi zamoniylar degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatga xizmat etsa. (Bin va millatga xizmat ilm va oqcha ila bo'lur.) Shu ilmi zamoniy gahsil qilmoq uchun harakat qilmoq'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimizni mulkini sotib to'y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'glingizni zamoncha o'qimoqiga sa'y qilsaniz. To'yga isrof qilinaturgon oqchalarni o'qimoq yo'liga sarf qilsaniz!" [2;169.]

Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy yosh avlodga o'z vaqtida ilm-fan va zamonaviy bilimlarni egallashning ahamiyatini tushuntiradi. U yoshlarga murojaat qilganida, turli sohalarda faoliyat olib borish uchun har bir inson zamon talablariga mos bilimga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Behbudiy bu orqali nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham o'zini tayyorlash zaruriyatini ochib beradi. Shuningdek, muallif ota-onalarga va jamiyatga murojaat qilib, bolalarni zamonaviy bilim olish yo'liga yo'naltirish zarurligini bildiradi. U ta'kidlaydiki, agar ota-onalar o'z farzandlarining ta'limiga sodiq bo'lsa, hatto mol-mulkini sarflashga tayyor bo'lsa ham, bu investitsiya millat va din manfaatiga xizmat qiladi. Shu bilan Behbudiy ilmni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki millat taraqqiyoti, din va jamiyat manfaatida amaliy vosita sifatida ko'radi.

Maqolada Behbudiy yoshlarni faqat o'qishga undab qolmay, ularni mas'uliyatli, o'z vaqtida harakat qiladigan, jamiyat manfaatini o'z manfaatidan yuqoriroq qo'yadigan shaxs sifatida tarbiyalashga chaqiradi. U "to'yga isrof qilinadigan pulni o'qimish yo'liga sarflash" misoli orqali bilim olishni moliyaviy jihatdan ham ustuvor vazifa deb baholaydi. Umuman olganda, ushbu murojaat jadidchilik ta'lim falsafasining eng asosiy tamoyillarini ifodalaydi: zamonaviy ilmga tayyorlanish, ota-onaning tarbiyaviy mas'uliyati, jamiyat va millat manfaatini ustuvor qo'yish va bilimni amaliy hayotga tatbiq etish. Bu fikrlar bugungi kunda ham milliy va modern ta'lim sohasiga oid yondashuvlar uchun muhim nazariy manba hisoblanadi.

Abdulla Avloniy ta'limga oid va falsafiy qarashlarida tarbiyani millat ravnaqining eng muhim omili sifatida talqin qilgan. U o'z asarlarida ta'lim va tarbiya jarayoni shaxsni bilimli qilishdan tashqari, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy ongni uyg'otish va axloqiy yetuklikni shakllantirish vositasi ekanini ta'kidlaydi (1;47.). Avloniy fikricha, ta'limning maqsadi shaxsni faqat bilimli qilish emas, balki uning ma'naviy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishdir, bu esa butun millat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallolohu alayhi vasallam afandimiz: "Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasabi axloqindadur", – demishlar."

"Agar bir qushning yosh bolasin olib,
Bo'lur tarbiyat birla yo'lga solib.
Onasin olib asrag'on birla rom,
Qilmas kishi sa'y qilsa mudom.
Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak.
Egur bemashaqqat kishi navdani,
To'g'unchi egur kuydirib kavdani." [1;5.]

Avloniyning ushbu misralari yosh avlod tarbiyasini tabiat metaforasi orqali ifodalab, uning falsafiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib beradi. U qushning yosh bolasi misolida shaxsning ilk rivojlanish bosqichi qanchalik muhimligini ko'rsatadi va shuni ta'kidlaydiki, tarbiya bolalikdan tarbiyalanib boshlanishi shartdir. Misralarda ota-onaning yoki tarbiyachining faol ishtiroki, shaxsni yo'naltirishdagi mas'uliyati alohida ta'kidlangan, chunki tarbiya tasodifiy bo'lmaydi va doimiy sa'y-harakat, e'tibor va mehr bilan amalga oshirilishi lozim.

Avloniy shuningdek, tarbiyaning natijalari uzoq muddatda, shaxs ulug'lashganida ko'rinishini bildiradi, bu esa pedagogikada sabr-toqat va davomiylikning muhimligini ko'rsatadi. Misralardagi "egur bemashaqqat kishi navdani, to'g'unchi egur kuydirib kavdani" qatori shaxsiy mehnat, sabr va tinimsiz harakatning ahamiyatini ochib beradi, ya'ni tarbiya natijasi faqat tashqi yordam yoki resursga bog'liq emas, balki insonning o'z sa'y-harakati bilan shakllanadi.

Shu tarzda Avloniy shaxsni kamol toptirish jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasligini, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk, millatga foydali va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan shaxsni tarbiyalashni nazarda tutishini ifodalaydi. Bu misralar orqali Avloniy tarbiya falsafasining asosiy tamoyillarini yoshlikdan boshlangan tizimli ta'lim, ota-ona va tarbiyachining mas'uliyati, sabr va mehnat orqali shakllanadigan natijani yoritadi va ularni milliy uyg'onish, ijtimoiy ong va axloqiy kamolot bilan uzviy bog'laydi. Bu misralarda Avloniyning ma'rifatparvar va millatparvar qarashlari ifodalanganini ko'rishimiz mumkin.

Munavvarqori Abdurashidxonov pedagogik yangiliklarga alohida e'tibor qaratgan. U yangi metod asosida savod o'rgatish tizimini ishlab chiqqan, unda har bir dars mantiqiy tizimga asoslangan va interaktiv tarzda o'tkazilgan. Munavvarqori Abdurashidxonovning qarashlarida ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va jamiyatdagi faol ishtirokni rag'batlantirishga qaratilgan (3;304.). Uning metodik yondashuvi shaxsning komil shakllanishi va ijtimoiy ongini uyg'otishni ta'minlaydi.

Darhaqiqat, ularning asarlari nafaqat badiiy yoki sahnaviy ahamiyatga ega, balki jamiyat ongini uyg'otish, insonlarni tafakkur va ma'rifat sari yo'naltirish vazifasini bajaradi. Ular bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ma'rifat va adolat yo'lidagi tafakkur charog'i bo'lib xizmat qilmoqda.[4;6.]

Umuman olganda, ushbu uch mutafakkirning pedagogik va ijtimoiy falsafiy qarashlarida bir umumiy prinsip mavjud: ta'lim va tarbiya shaxsning komil shakllanishi, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy ongni uyg'otish vositasi sifatida qaraladi. Jadidlar ta'limni milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirishga intilganlar, bu esa ularning pedagogik falsafasining eng muhim jihatini tashkil qiladi. Shu tariqa, jadidlar davridagi ta'lim islohotlari nafaqat pedagogik, balki falsafiy va ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun muhim metodologik manba hisoblanadi. [5]

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, jadidlar ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida quyidagi falsafiy tamoyillarga tayandilar: "ma'rifatparvarlik" jamiyat taraqqiyoti ilm bilan belgilanadi, "insonparvarlik" ta'lim shaxs erkinligi va tafakkur mustaqilligini rivojlantirishi lozim, "milliylik va universallik uyg'unligi" milliy qadriyatlar asosida zamonaviy bilimlarni o'rgatish, "diniy va dunyoviy bilim integratsiyasi" diniy qadriyatlarni inkor etmagan holda dunyoviy fanlarni joriy etishga bel bog'laganlar.[6]

Navbatda “usuli jadid” haqida to‘xtalsak, bu usul eski maktab tizimidan farqli ravishda tovush asosida savod o‘rgatish, aniq fanlarni o‘qitish, geografiya, tarix, matematika kabi dunyoviy fanlarni dasturga kiritish bilan ajralib turgan. Bu esa ta’lim jarayonini ratsional, tizimli va samarali qilishga xizmat qilganligini ko‘rish mumkin. Jadid maktablarida o‘qitish metodlari zamonaviy pedagogik tamoyillarga mos ravishda tashkil etildi, ya’ni darsliklar yaratildi, sinf tizimi joriy qilindi, ko‘rgazmali vositalardan foydalanildi. Bu jarayon Sharq va G‘arb pedagogik tafakkuri sintezining mahsuli hisoblanadi.

Bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ildizlari bevosita jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va pedagogik qarashlariga borib taqaladi desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati ta’limni jamiyat taraqqiyotining markaziy omili deb bilgan, uning asosiy vazifasi yosh avlodni ilm-fan, tafakkur va axloqiy kamolot bilan ta’minlash bo‘lgan. Ular ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki milliy uyg‘onish, ma’naviy yetuklik va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilgan.

Hozirgi kun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham shunday tamoyillarga asoslanadi. Masalan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish kabi masalalar jadidlar qarashlari bilan hamohangdir. Ularning ta’limga bo‘lgan yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, har bir insonning shaxsiy rivojlanishi, milliy o‘zlikni anglashi va jamiyatga foydali bo‘lishi uchun ilmiy va ma’naviy tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega. [7;40-46.]

Shuningdek, jadidlar ta’lim falsafasining asosiy g‘oyalari tarbiyani yoshlikdan boshlash, ota-ona va jamiyatning faol ishtiroki, sabr va tinimsiz sa’y-harakat orqali shakllangan natija bugungi ta’lim tizimida ham aks etmoqda. Masalan, ta’limning birinchi bosqichidan boshlab bolalarga zamonaviy fanlar, axloqiy qadriyatlar va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini berish, ularni kelajakda mustaqil fikrlaydigan va jamiyatga foyda keltiradigan shaxs sifatida tarbiyalash jarayoni aynan jadidlar ilgari surgan pedagogik tamoyillarning amaliy davomidir. Shu bois, jadidlar qarashlarining zamonaviy ta’lim islohotlaridagi ahamiyati nafaqat tarixiy jihatdan, balki metodologik va falsafiy nuqtai nazardan ham dolzarbdir. Ularning ishlari bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va yosh avlodni milliy ong, ilm-fan va ma’naviy barkamollik asosida tarbiyalashning konseptual poydevorini yaratadi.

Xulosa. Jadidlar davrida amalga oshirilgan ta’lim islohotlari chuqur falsafiy asosga ega bo‘lib, ular ma’rifatparvarlik, insonparvarlik, milliy uyg‘onish va modernizatsiya tamoyillariga tayangan holda shakllandi. “Usuli jadid” maktablari orqali ta’lim tizimi mazmunan va metodik jihatdan yangilandi.

Jadidlar merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda metodologik manba sifatida ham muhimdir. Ularning ilm-ma’rifatni millat taraqqiyotining bosh omili sifatida talqin qilishi bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 47 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 280 b.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2003.

4. Tursunkulova Sh.T. Jadidlarning estetik merosi: go‘zallik va ma’rifat uyg‘unligi. Jadidchilik: o‘zgarish va taraqqiyot mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2025-yil 31-may. II qism. “Durdona” nashriyoti, - Buxoro. – 2025. – 64-66 betlar.
5. [Begali Qosimov. Ismoil Gasprinskiy | Xurshid Davron kutubxonasi](#)
6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/>
7. Umitov Nodir Mamadi o‘g‘li. (2026). JADIDLAR HARAKATINING MA’RIFIY VA IJTIMOY G‘OYALARI: ZAMONAVIY TARAQQIYOT BILAN UYG‘UNLIKDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE* , 3(26), 40-46. <https://sr-journals.org/index.php/UJSSPC/article/view/375>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).